

O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATIDA MEHNAT MAVZUSINING IFODALANISHI

Gataullin Ildar Medxatovich

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20262239>

Annotasiya. Ushbu maqolada mavzu bo'yicha belgilangan vazifalar kompleks holda nazariy-amaliy ravishda o'rganilgan. Unda o'zbek rangtasvir san'atida mehnat mavzusining o'rni va unda ijod qilgan rassomlarning asarlarini mazmun-mohiyati ham chuqur tahlil etiladi. Bu esa tadqiqotning ham ilmiy, ham amaliy yangiligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Rangtasvir, O'zbekiston tasviriy san'ati, mehnat mavzusi, kompozitsiya, badiiy obraz, rassomlar ijodi, san'atshunoslik, rangli yechim, mavzuli rasm.

ОТРАЖЕНИЕ ТЕМЫ ТРУДА В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье поставленные по теме задачи комплексно изучены в теоретическом и практическом аспектах. В ней глубоко анализируются место темы труда в узбекском искусстве живописи, а также содержание и сущность произведений художников, творивших в данном направлении. Это подтверждает как научную, так и практическую новизну исследования.

Ключевые слова: живопись, изобразительное искусство Узбекистана, тема труда, композиция, художественный образ, творчество художников, искусствоведение, цветовое решение, тематическая картина.

THE REPRESENTATION OF THE THEME OF LABOR IN THE FINE ARTS OF UZBEKISTAN

Annotation. This article comprehensively studies the tasks defined within the topic from both theoretical and practical perspectives. It deeply analyzes the role of the labor theme in Uzbek painting art, as well as the content and essence of the works created by artists who worked in this field. This confirms both the scientific and practical novelty of the research.

Keywords: painting, fine arts of Uzbekistan, labor theme, composition, artistic image, artists' creativity, art studies, color solution, thematic painting.

O'zbekiston Respublikasining istiqloлга erishishi xalqimizning tarixiy qadriyatlarini, ma'naviy merosi xalq pedagogikasi an'alarini qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo'l ochib berdi. Ayniqsa, asriy an'analarga ega bo'lgan Tasviriy san'at turlariga o'quvchi yoshlarni jalb etish katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Shu jihatdan ham yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda jamiyatimiz pedagogika fani, xususan san'at pedagogikasining oldiga yangi vazifalar yukladi..

Zero boshqa sohalar bilan hamohang tarzda ilm va san'at sohalarida ham tub o'zgarishlar davri kechmoqda. Bu o'zgarishlar yosh avlodda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishni ham taqozo etadi.

Talabalarni ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga molik bo'lgan bu tadbirni amalga oshirishga ko'p yillar davomida milliy boylik bo'lib kelgan xalqimizning madaniy va maishiy hayotga keng tatbiq etilgan go'zal xunarlaridan biri tasviriy san'atni o'rgatish va u soha

bo'yicha bo'lg'usi tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash muammosi ham katta ijtimoiy pedagogik ahamiyatga egadir. Chunki yoshlar vatanimiz kelajagi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"¹ deya bejizga aytmagan.

Shu bois bugungi kunda ta'lim tizimida tasviriy san'at fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish, yoshlarning estetik didini shakllantirish, ularda milliy qadriyatlarga hurmat va badiiy tafakkurni rivojlantirish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Tasviriy san'at insonning nafaqat ijodiy qobiliyatini, balki uning fikrlash doirasini, dunyoqarashini va ma'naviy olamini ham boyitadi. Ayniqsa, rangtasvir, kompozitsiya, qalamtasvir va dekorativ-amaliy san'at yo'nalishlarida olib borilayotgan amaliy mashg'ulotlar yoshlarning mustaqil ijodiy fikrlashini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tasviriy san'atni o'qitish jarayonida milliy an'analar va zamonaviy san'at yutuqlarining uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki xalqimizning boy madaniy merosi, qadimiy naqsh san'ati, miniatyura, monumental va dastgohli rangtasvir an'analari bugungi yosh avlod uchun muhim ma'naviy manba hisoblanadi. Ularni chuqur o'rganish va amaliy faoliyatda qo'llash orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy mahorat, estetik tafakkur va ijodiy yondashuv shakllanadi. Bugungi globallashuv davrida milliy san'atimizni asrab-avaylash, uni xalqaro miqyosda targ'ib qilish ham dolzarb masalalardan biridir. Shu sababli tasviriy san'at ta'limida innovatsion metodlardan foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish hamda talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarining nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikma va malakalarini ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tasviriy san'at orqali yoshlarni milliy g'urur, vatanparvarlik va estetik madaniyat ruhida tarbiyalash imkoniyati yanada kengayadi. San'at inson qalbiga go'zallik, ezigulik va nafislik tuyg'ularini singdiradi. Natijada yosh avlodning ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan va ijodkor shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratiladi. Demak, tasviriy san'atni o'qitish metodikasini takomillashtirish, milliy va zamonaviy san'at an'alarini uyg'unlashtirgan holda ta'lim jarayoniga tatbiq etish hamda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini har tomonlama yetuk mutaxassis sifatida tayyorlash bugungi kun pedagogikasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston tasviriy san'ati milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, rangtasvir san'atida inson mehnati, ishlab chiqarish muhiti va mehnatkash obrazini badiiy talqin etish masalasi milliy tasviriy san'atimizda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Mehnat mavzusi nafaqat ijtimoiy hayotni aks ettiruvchi vosita, balki xalqning turmush tarzi, ma'naviyati, dunyoqarashi va zamonaviy taraqqiyotini ifodalovchi badiiy hodisa sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz".T.:Ozbekiston. 2016 y

Bugungi kunda O'zbekiston rassomlari mehnat mavzusiga yangicha nigoh bilan qaramoqdalar.

Zamonaviy tasviriy san'atda mehnat mavzusi dekorativ rangtasvir elementlari va simbolik ma'nolar bilan boyimoqda. Rassomlar nafaqat realistik uslubda, balki shartli shakllar va yorqin rang kontrastlari orqali ham mehnat go'zalligini tarannum etmoqdalar. Bu esa milliy rangtasvirimizning ko'p qirrali ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston tasviriy san'atida mehnat mavzusining ifodalanishi masalasi bugungi globallashuv sharoitida yanada muhim ahamiyatga ega. Chunki mehnat jarayoni orqali jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar, urbanizatsiya, texnologik taraqqiyot va insonning ruhiy kechinmalari badiiy ifodasini topadi.

Shu jihatdan olib qaraganda, o'zbek rassomlari tomonidan yaratilgan turkum asarlarni ilmiy va badiiy jihatdan tahlil qilish, ulardagi kompozitsion yechimlar, rang izlanishlari hamda g'oyaviy qarashlarni tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston rangtasvirida mehnat mavzusi XX asrning birinchi yarmidan boshlab shakllana boshladi. Dastlabki yillarda bu mavzu ko'proq tashviqot va ijtimoiy qurilish jarayonlarini aks ettirgan bo'lsa, keyinchalik rassomlar ijodida inson shaxsi va uning ichki dunyosiga urg'u berila boshlandi. Mehnat jarayoni shunchaki jismoniy harakat emas, balki ma'naviy yuksalish va yaratuvchanlik ramzi sifatida talqin etildi.

Janrli kompozitsiyalarda mehnat mavzusini ochib berishda rassomlar turli badiiy usullardan foydalanadilar. Masalan, asarlarda ko'pincha markaziy va mahobatli kompozitsiya uslubi tanlanadi. Bunda asosiy e'tibor mehnat kishisining qaddi-qomati, qo'l harakatlari va nigohlariga qaratiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. O'zbekiston tasviriy san'atida mehnat mavzusining ifodalanishi (Turkum asarlar misolida) mavzusidagi tadqiqot ishining ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O'zbekiston tasviriy san'atida mehnat mavzusining badiiy talqini turkum asarlar misolida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, mehnat mavzusidagi asarlarda milliylik va zamonaviylik uyg'unligi, rassomlarning individual uslubi hamda kompozitsion izlanishlari ilk bor tizimli ravishda o'rganiladi. Tadqiqot davomida mehnat mavzusining faqat ijtimoiy hodisa emas, balki estetik va ma'naviy qadriyat sifatidagi ahamiyati ham ilmiy asosda yoritiladi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Mazkur tadqiqot ishining asosiy masalalari O'zbekiston tasviriy san'atida rangtasvir va kompozitsiya ishlashning badiiy hamda nazariy asoslarini o'rganish, mavzuli kompozitsiyalarda g'oya va obraz yechimining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishdan iboratdir.

Tadqiqot davomida dastgohli rangtasvirda kompozitsiya qurilishi, rang munosabatlari, kolorit, fazoviy yechim va badiiy ifoda vositalarining qo'llanish tamoyillari ilmiy jihatdan tadqiq etiladi. Shuningdek, milliy rangtasvir maktabining shakllanish jarayoni, rassomlar ijodidagi uslubiy izlanishlar hamda zamonaviy rangtasvir san'atida mavzuli kompozitsiyalarning o'rni yoritiladi. Tadqiqotda rangtasvir asarini yaratishning ijodiy, texnik va texnologik bosqichlari, eskiz ustida ishlash, naturadan kuzatish va badiiy umumlashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, agar tasviriy san'atda rangtasvir va kompozitsiya ishlash jarayonida milliy badiiy an'analar, rang uyg'unligi, kompozitsion yechim va

obrazlilik vositalaridan maqsadli foydalanilsa, yaratilayotgan asarlarning badiiy-estetik ta'sirchanligi va mazmun-mohiyati yanada kuchayadi. Shuningdek, ijodiy izlanishlar davomida rang, yorug'-soya, ritm, muvozanat va fazoviy yechim kabi tasviriy vositalarning o'zaro uyg'un qo'llanilishi kompozitsiyaning yaxlitligini ta'minlaydi hamda asarning g'oyaviy mazmunini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Agar rassom ijodiy jarayonda milliy kolorit, hayotiy kuzatuvlar va zamonaviy badiiy yondashuvlarni uyg'unlashtirsa, dastgohli rangtasvir asarlarida obrazlarning emotsional ifodaviyligi va estetik qiymati ortadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot jarayonida tarixiy-taqqosiy, formal-tahliliy va ikonografik metodlardan foydalanildi. Shuningdek, prezident farmon va qarorlari, ma'naviyatga oid kitoblar jahon san'ati tarixi¹, O'zbekiston badiiy akademiyasi rassomlari haqidagi katalog-albom va kitoblar², Dekorativ san'atiga oid kitoblar, entsiklopediya kitoblari³, shuningdek mustaqillik yillarida chop etilgan badiiy va ilmiy adabiyotlar, ma'naviy merosni o'rganishga qaratilgan manbalar asos qilib olindi.

Tadqiqotni ilmiy asoslash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va Vazirlar maxkamasi qarorlari o'rganib chiqilib ma'qul joylarda snoska asosida berib borildi.

Mavzuni o'rganishda asosan ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilindi. Jumladan, Abdullaev N.U. «San'at tarixi», kabi bir qator tadqiqotchilarning adabiyotlariga murojaat qilindi.

Shuningdek, zamonaviy O'zbekiston rangtaviridagi yangi yo'nalishlar, janrlar rivoji xususidagi fikrlar bilan tanishishda N.Ahmedovanning “Живопись Центральной Азии: традиции, самобытность, диалог”⁴ ilmiy asarida O'zbekistonda san'atining o'ziga xosligi, uning bu o'lkada tug'ilishi turli g'oyalar va ta'sirlar bilan bog'liqligi, yosh milliy maktabning shakllanishi, rassomlarning murakkab, ba'zan esa fojeaviy hayot yo'llari kabi tarixiy jarayonlar ko'p narsani belgilab bergani, keng tarixiy madaniy asosda uning o'ziga xosligi, u san'atdagi ikki xil uslubni uyg'unlashuviga, to'qnashuviga sabab bo'lgani sharqona an'anaviylikka asoslangan mahalliy madaniyat bilan bog'liq bo'lgan hususiyatlar batafsil yoritilgan. A.Hakimov, N.Axmedova, K.Akilova va boshqa san'atshunoslarning ilmiy tadqiqotlari natijalari mazkur tadqiqot uchun muhim manbaa vazifasini bajardi.

O'zbekiston tasviriy san'atida mehnat mavzusining ifodalanishi milliy g'oya va insonparvarlik tamoyillari bilan sug'orilgan. Rassomlarimiz yaratgan badiiy obrazlar xalqimizning bunyodkorlik ruhini saqlab qolish bilan birga, yuksak estetik qiymatga ega. Mehnat va ijod uyg'unligi kelajakda ham yangi-yangi asarlar yaratilishiga zamin bo'lib qolaveradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz". T.: Ozbekiston. 2016 y
2. Oydinov N. Ozbekiston tasviriy san'atidan lavhalar. – T.: O'qituvchi, 1997

¹ Oydinov N. Ozbekiston tasviriy san'atidan lavhalar. – T.: O'qituvchi, 1997; Ўзбекистон санъати (1991 – 2001 йиллар). – Т., “Шарқ”, 2001; Неъмат Кўзибоев. Альбом–каталог. – Т., 2005; Аҳмедов М. Малик Набиев ҳаёти ва ижоди. – Т., Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000; Ойдинов Н.. Малик Набиев кўрғазмалари каталоги. – Т., 1996

³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1 – 11 томлар. – Т.; Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2000.

⁴ Ахмедова Н.Р. Живопись Центральной Азии: традиции, самобытность, диалог. Т: 2004.

3. Ўзбекистон санъати (1991 – 2001 йиллар). – Т., “Шарк”, 2001
4. Неъмат Қўзибоев. Альбом–каталог. – Т., 2005
5. Ахмедов М. Малик Набиев ҳаёти ва ижоди. – Т., Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000
6. Ойдинов Н.. Малик Набиев кўргазмалари каталоги. – Т., 1996
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1 – 11 томлар. – Т.; Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2000.
8. Ахмедова Н.Р. Живопись Центральной Азии: традиции, самобытность, диалог. Т: 2004.